

Tadqiqotchi Gulyamova Muxtabar Abdujabbarovnaning “O‘zbekistonda ekologik PR: xususiyatlari va taraqqiyot tendensiyalari” mavzusidagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatiga

TAQRIZ

Global iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillik inqirozi, ekologik tanazzul jarayonlari insoniyat rivojlanish strategiyasini qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Hozirgi davrda “yashil iqtisodiyot”, “barqaror rivojlanish” kabi konsepsiyalar nafaqat siyosiy, iqtisodiy, balki ilmiy diskursning ham markazida turibdi. O‘zbekiston Respublikasi ham atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik muammolarni bartaraf etish yo‘lida faol siyosat olib bormoqda. Bu jarayonda ekologik holatni yaxshilash va ekologik xavfsizlikni ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligi ko‘p jihatdan jamiyatning ekologik ongi, madaniyati va ekologik savodxonligiga bog‘liq. Shuning uchun ham ekologik muammolarni ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali yoritish, jamoatchilik bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish, ekologik PR texnologiyalaridan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchi Muxtabar Gulyamovanning “O‘zbekistonda ekologik PR: xususiyatlari va taraqqiyot tendensiyalari” mavzusidagi dissertatsiyasi aynan shu nuqtayi nazardan dolzarbligi va ilmiy-amaliy ahamiyati bilan ajralib turadi.

Tadqiqotning metodologik asoslari chuqur va ko‘p qirralidir. Muallif ekologik PR hodisasini o‘rganishda sinergetik yondashuvdan foydalangan, ya‘ni ekologik PR kommunikatsiyalarini ochiq, o‘z-o‘zini tashkil qiluvchi, dinamik tizim sifatida tahlil qilgan. Bu yondashuv ekologik PRning tabiati, rivojlanish qonuniyatlari va tizimli xususiyatlarini to‘liqroq ochib berishga imkon yaratgan. Shuningdek, tadqiqotda aksiologik yondashuv ham qo‘llanilib, ekologik PR diskursida qadriyatlarining ahamiyati, ekologik kommunikatsiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarining o‘rni atroflicha o‘rganilgan.

Dissertatsiyada filologik tadqiqotlar doirasida ekologik PR diskursi alohida o‘rin tutadi. Tadqiqotchi ekologik PR matnlarining lingvistik xususiyatlari, verbal va noverbal ta‘sir vositalari, ekologik kommunikatsiyada qo‘llaniladigan nutqiy strategiya va taktikalarning xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan. Muallif ekologik PR matnlarining funksional-pragmatik jihatlarini ochib bergan, ularda argumentatsiya, nutqiy ta‘sir, ishontirish vositalarining qo‘llanilishi, metafora, epitet, qiyoslash kabi til vositalarining roli ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, ekologik PR diskursining janr xususiyatlari, matn tuzilishi, lingvostilistik vositalari ham batafsil o‘rganilgan.

Dissertatsiyada alohida e'tiborga molik jihatlardan biri ekologik PR sohasida terminologik tizimning shakllanishi va rivojlanishi masalasidir. Muallif ekologik PR sohasiga oid terminlarning shakllanish manbalari, usullari va evolyutsiyasini, o'zbek tilida ekologik PR terminologiyasining xususiyatlarini tahlil qilib, bu sohadagi terminologik apparatni takomillashtirish bo'yicha qimmatli takliflarni ilgari surgan. Ekologik PR sohasida yangi terminlarning paydo bo'lishi, ularning semantik va funktsional xususiyatlari, ekologik PR terminlarining boshqa sohalar terminlari bilan aloqadorligi masalalari chuqur o'rganilgan.

Tadqiqotning e'tiborga molik jihatlardan yana biri raqamli transformatsiya sharoitida ekologik PR texnologiyalarining o'zgarishi, konvergensiya jarayonlari ta'sirida ekologik PR strategiyalarining yangilanishi masalalaridir. Muallif raqamli platformalarda ekologik PR kampaniyalarini tashkil etish, ijtimoiy tarmoqlarda kommunikatsion strategiyalarni ishlab chiqish, interaktiv va multimedia vositalaridan foydalanish, Big Data texnologiyalari yordamida auditoriyani segmentlash kabi innovatsion yondashuvlarni tahlil qilgan. Shuningdek, ekologik kraudsorsing, kraudfanding, geymifikatsiya, transmedia storitelling kabi zamonaviy texnologiyalarning ekologik PR sohasida qo'llanilishi ham chuqur o'rganilgan.

Global axborot makonida O'zbekistonning ekologik imijini yuksaltirish masalasi tadqiqotda muhim o'rin tutadi. Muallif mamlakatimizning "yashil iqtisodiyot"ga o'tish, Orol dengizi hududini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasiga aylantirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, tabiiy resurslarni tejash va bioxilma-xillikni saqlash borasidagi islohotlarini xalqaro jamoatchilikka yetkazish strategiyalarini ishlab chiqqan. Bunda nafaqat xorijiy auditoriya, balki mahalliy aholi, yoshlar, biznes subyektlari, nodavlat tashkilotlar kabi maqsadli auditoriyalarga yo'naltirilgan kommunikatsiya strategiyalari ham taklif etilgan.

Dissertatsiyada ekologik PR sohasida kommunikator va retsipient o'rtasidagi muloqotning lingvopragmatik xususiyatlari, ekologik mavzudagi axborotni uzatish va qabul qilish jarayonida yuzaga keladigan kommunikativ to'siqlar, ularni bartaraf etish yo'llari ham tadqiq etilgan. Muallif ekologik PR matnlarining ta'sirchanligini oshirishda lingvistik va ekstralingvistik omillarning rolini, kommunikativ strategiyalarni ishlab chiqishning lingvomadaniy xususiyatlarini atroflicha yoritib bergan.

Tadqiqotning empirik bazasi reprezentativ va ko'p qirrali. Muallif tomonidan o'tkazilgan kontent-analiz, diskurs-tahlil, intervyu, fokus-grup tadqiqotlari, sotsiologik so'rovnomalar natijalari ekologik PR matnlarining samaradorligini aniqlash, ularning maqsadli auditoriyaga ta'sir darajasini baholash imkonini bergan. Tadqiqot doirasida OAV, ijtimoiy tarmoqlar va rasmiy veb-

saytlarda joylashtirilgan ekologik mavzudagi materiallarning lingvistik tahlili, ularning pragmatik ta'siri, jamoatchilik ongini shakllantirishdagi roli aniqlangan.

Dissertatsiyada ekologik PR sohasida innovatsion texnologiyalarning o'rni alohida o'rganilgan. Xususan, sun'iy intellekt texnologiyalari, mashina o'rganishi, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR), internet buyumlar (IoT) kabi texnologiyalarning ekologik PR kampaniyalarida qo'llanilishi, ularning samaradorligi va istiqbollari ko'rsatib berilgan. Ekologik PR sohasida innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ularni O'zbekiston sharoitida joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Dissertatsiya ishining natijalari keng qamrovli amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot materiallari ekologik PR sohasida mutaxassislar tayyorlash, malaka oshirish, kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish tizimini takomillashtirishda, shuningdek, ekologik jurnalistika, ekologik ta'lim va tarbiya sohalarida ham muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan ekologik PR strategiyalari, model va texnologiyalar respublikamizda ekologik madaniyatni yuksaltirish, jamiyatning ekologik muammolarga nisbatan mas'uliyatli munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilgan yutuqlar bilan birga, dissertatsiyada ayrim kamchiliklar ham mavjud. Xususan, ekologik PR diskursida milliy va madaniy o'ziga xoslikning lingvistik ahamiyati, ekologik kommunikatsiyada milliy mentalitet xususiyatlarining aks etishi masalalari yetarlicha yoritilmagan. Shuningdek, ekologik PR sohasida qo'llaniladigan verbal va noverbal vositalarning qiyosiy tahlili, ularning o'zaro aloqadorligi va samaradorligini baholash mezonlari to'liq ochib berilmagan. Biroq bu kamchilik dissertatsiya ishining umumiy ilmiy-nazariy va amaliy qimmatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Gulyamova Muxtabar Abdujabbarovnaning "O'zbekistonda ekologik PR: xususiyatlari va taraqqiyot tendensiyalari" mavzusida 10.00.09. – "Jurnalistika" ixtisosligidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi avtoreferatini himoyaga munosib ish sifatida tavsiya etish mumkin, deb hisoblayman.

Taqrizchi:



Muhabbat SALIYEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika
oliy maktabi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

